O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

XUSHMURODOVA SHAXNOZA SHAYMONKULOVNA

BILINGVAL TALABALARNING IKKILAMCHI LISONIY IDENTIVLIGINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

10.00.11 – Til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

XUSHMURODOVA SHAXNOZA SHAYMONKULOVNA

**BILINGVAL TALABALARNING IKKILAMCHI LISONIY
IDENTIVLIGINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVOKOGNITIV
XUSUSIYATLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fil614 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ergasheva Guli Ismoil qizi** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Arustamyan Yana Yuriyevna filologiya fanlari doktori, dotsent
	Vositov Volijon Abduvahobovich filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc 03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___"_____ kuni tarqatildi.

(2024-yil "___"_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M. Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,
professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik
Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ikki tillilik va koʻp tillilikning rivojlanish dinamikasi barqaror oʻsish koʻrsatkichini saqlab kelmoqda. Ikki tillilik bir-biridan farq qiluvchi ikki tilda soʻzlashuvchi shaxsning shakllanishida faol jarayon hisoblanadi. Qolaversa, xorijiy tillarni mukammal bilish boshqa madaniyatning milliy-madaniy xususiyatlarini idrok etishni ancha osonlashtiradi va zamonaviy jamiyatning ijtimoiy hamda axborot makonida chin ma'noda, muloqot qilish imkonini beradi. Shu bois, madaniy qadriyatlarlarning rivojlanish kontekstida ikki tillilik hodisasini anglash – zamonaviy sivilizatsiya bosqichining muhim shartlaridan biridir. Zero, hozirgi davr tilshunosligida ikki tillilikka kommunikativ hodisa sifatida qaralayotgani ham bejiz emas, albatta. Eng muhimi, ikki tillilikning xususiyatlari sun'iy ikki tillilikdan keskin farq qilishini tilshunoslar oʻz tadqiqotlarida, ilmiy izlanishlarida muayyan omillar asosida tahlil qilayotganliklarini fanning asosiy paradigmasi sifatida e'tirof etishga misol boʻla oladi.

Dunyo tilshunosligida lingvodidaktika va nutq psixologiyasiga oid matnlar tahlilida ishtirok etgan sun'iy ikki tillilik dunyo olimlari tomonidan real voqelik sifatida tan olinmoqda. Negaki, chet tili turli mamlakatlarda har xil usullar yordamida oʻqitiladi va oʻrgatiladi. Ammo sun'iy ikki tillilikning lingvistik tamoyillari va oʻziga xos xususiyatlari hali ham tadqiq etilmagani mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Sun'iy ikki tillilikni har tomonlama chuqur oʻrganish – tilshunoslik, psixologiya, madaniyatshunoslik, chet tillarini oʻqitish metodikasi bilan bogʻliq bilim sohalarini rivojlantirishdagi istiqbolli vazifalarni belgilash va tadqiq etish imkonini beradi.

Mamlakatimizda ikki tillilik muammosini umumiy va oʻziga xos qonuniyatlar asosida oʻrganish, xususan, bilingval talabalarning lisoniy identivligini aniqlash dolzarblik kasb etadi. "Mamlakatimizda yoshlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ilmli va ma'rifatli yoshlarni kamol toptirish, ulgʻayib kelayotgan yosh avlodning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, xorijiy tillarga oʻqitishni yanada ommalashtirish, shuningdek, bunday faoliyat bilan shugʻullanuvchi subyektlarni qoʻllab-quvvatlash va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish, yoshlarni xorijiy tillarga oʻqitish jarayonlarini takomillashtirish, talab yuqori boʻlgan chet tillarini mukammal oʻzlashtirish uchun sharoitlarni kengaytirish"[1] boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, qoraqalpoq talabalarining fonetik kompetensiyasini rivojlantirishga koʻmaklashuvchi hamda ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni ilmiy-nazariy asoslash zamonaviy tilshunoslikning ustuvor vazifalari sirasiga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi "Yoshlarni xorijiy tillarga oʻqitish tizimi samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-239-son qarori //https://lex.uz/uz/docs/-6986619

ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. "Ikki tilli ta'lim to'g'risida"gi 1968-yilda qabul qilingan ushbu qonun ingliz tilida so'zlashuvchi va til ko'nikmasi cheklangan talabalarning ehtiyojlari bilan shug'ullanadigan Amerika Qo'shma Shtatlaridagi birinchi federal qonun bo'lib, ingliz tilida ko'nikmasi cheklangan bolalarga xizmat ko'rsatuvchi dasturlar uchun mablag' ajratish orqali ikki tillilik rivojlantiradigan va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishga mo'ljallangan dasturlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan; Ikki tilli dasturlar oxirgi bir necha o'n yilliklarda global darajaga ko'tarildi, 1990-yillardan boshlab sezilarli darajada rivojlandi. Kaliforniya, Nyu-York va Texas kabi shtatlardagi maktablar o'quvchilariga ingliz va qo'shimcha tillarni (masalan, ispan, mandarin) o'rgatadigan ikki tilli immersiv dasturlarni taklif qildi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bilingval talabalar lisoniy identifikatsiyasiga oid tadqiqotlar 1963-yilda Florida shtatidagi Deyd okrugidagi (Mayami) Koral Vay boshlang'ich maktabida olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar ikki tilli dastur ingliz tili va ispan tilida so'zlashuvchilarga nisbatda o'tkazilgan.

Ikki tilli ta'lim XX asrning o'rtalaridan boshlab turli til guruhlar uchun har xil shakllarda mavjud bo'lgan (Fishman & Xofman, 1966; Kloss, 1977). Kanadada ikki tilli ta'lim va hozirgi ikki tilli dasturlar bo'yicha dastlabki sa'y-harakatlar ikki tillilikni rivojlantirishga yordam bersa-da, bugungi kunda AQShdagi ko'plab ikki tilli dasturlar ikki tilli ta'limni faqat ingliz tilida savodxonlik maqsadiga erishish vositasi sifatida targ'ib qiladi. CLIL (Content and Language Integrated Learning): 1990 va 2000-yillarda Yevropaning turli mamlakatlarida joriy etilgan bo'lib, CLIL

---

[2] www.pushkin.institute, www.vub.ac.be, www.upf.edu/en/home, www.ralk.info, www.msu.ru, www.ugr.es/en, www.mq.edu.au/, www.uni-konstanz.de/en/, www.uzswlu.uz/, www.universityofcalifornia.edu.

tabiiy va ijtimoiy fanlarni xorijiy tilda o'qitishni o'z ichiga oladi. Ispaniya, Italiya va Finlandiya kabi mamlakatlar ta'lim tizimlarida CLIL tizimini keng joriy qilishgan.

Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Chexiya, Skandinaviya, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Ozarbayjon, Latviya, Litva, Estoniya kabi mamlakatlarda, shuningdek, O'zbekistonda ham ikki tilli ta'limning turli modellarini ishlab chiqish orqali, lisoniy nisbiylik nazariyasi asosida shaxsning lisoniy identivligining shakllanish omillarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Amaliy tilshunoslikda bilingvizm masalalari psixologiya va pedagogika kabi fanlar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Masalan, tadqiqotchilar J.E. Flege, G. Yeni-Komshian, H.Liu, J. J. Asher, R. Bialystok, T. Bongayerts, B. Planken, E. Schils3 va boshqalar yosh omilini ikkinchi tilni o'zlashtirishning muhim jihatlaridan biri deb hisoblashadi.

Ikki tillilikning dolzarb masalalari, uning psixologik va ijtimoiy ko'rinishi, afzalliklari va uslubiy xususiyatlari kabi tadqiqotlar rus olimlaridan E.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov, L.S. Vigotski, A.N. Liontiyev va boshqalar[4] tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbek tilshunosligida o'zbek va tojik bilingvizmi, uning ijtimoiy ko'rinishi va tillarning o'zaro farqli va o'xshash tomonlari, ularni psixologik va ijtimoiy sathda ta'sir etuvchi omillari kabi taqddiqotlar M.T. Zokirov, K. Yusupov, X. Gulyamov, K. Rahmonberdiyev, N.G. Gulyamova, M. Shamsiyeva[5] va boshqalarning ishlarida til aloqalari, xususan, bilingvizm haqida amaliy ahamiyatga molik fikrlar mavjud.

Bugungi kunga qadar tadqiqotlarning aksariyati ikki tilli ta'limni amalga oshirishning eng samarali usulini aniqlashga bag'ishlangan. Ushbu ilmiy izlanishlar asosan ikkinchi tilni o'zlashtirishga oid turli nazariyalar bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Mahalliy va xorijiy nutqdagi fonetik o'zgaruvchanlikni qayta ko'rib chiqishga bag'ishlangan tadqiqotlar D. Markham, G.G. Neufeld, L.L. Olson,

---

[3] Flege, J. E. Age of learning and second-language speech. In New perspectives on the critical periodhypothesis for second language acquisition (D. Birdsong, editor), 1988. – pp.101-131; Yeni-Komshian, G. & Liu, H. Age constraints on second language acquisition, Journal of Memory & Language, 1999. – pp. 78-104; Asher, J. J. & GarcmH. R. The optimal age to learn a second language, The Modern Language Journal, 1969. – pp. 334-341; Bialystok, E. The structure of age: in search of barriers to second language acquisition, Second LanguageResearch, 13, 1997. – pp. 116-137; Bongaerts, T., Planken B. & Schils, E. Can late learners attain a native accent in a foreign language?A test of the critical period hypothesis. In The age factor in second language acquisition (D. Singleton & Z. Lengyel, editors), 1995. – pp. 30-50. Clevedon, U.K.: Multilingual Matters; Bongaerts, T., van Summeren, C., Planken, B. & Schils, E. Age and ultimate attainment in thepronunciation of a foreign language, Studies in Second Language Acquisition, 19, 1997. – pp. 447-465.

[4] Верещагин Е.М. Психологическая и методологическая характеристика двуязычия (билингвизма). – Москва: МГУ, 1969. – С. 160.; Верещагин Е.М., Костомаров В. Г. Теория лингвострановедения: Лингвокультурология в аспекте билингвального образования (Theory of Linguoculturology: Linguocultural Studies in the Aspect of Bilingual Education). – Москва: Наука, 1990. – С. 70-89; Выготский Л.С. Мышление и речь (Thought and Language). – Москва: Педагогика, 1986. – С. 109, Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. Москва: Педагогика. 1978. – С. 70-89.

[5] Зокиров М.Т. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2007.; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Т.: Фан, 1974. – Б. 4. Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. – Т.: Фан, 1983; Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Т.: Фан, 1989. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Т., Фан, 1985. – 112 с.; Шамсиева М. Билингвал болалар нутқининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) … дисс. автореф. – Андижон, 2022. – 53 б.

S.J. Samuyels, S. Oyama, T. Piper, D. Kansin, E.T. Purcyell, R.W. Suter, T.J. Rine va boshqalar[6] tomonidan amalga oshirilgan. Ikki tilli talabalarning psixolingvistik qarashlari Grosjan asarlarida o'z aksini topgan[7].

Dissertatsiya ishi mavzuning kognitiv jihatlari A.E. Hiyeke, M. Jilka, J.T. Lamendella, E.H. Lenneberg, M.H. Long, D. Meador, I. MacKay, F. Missaglia, A. Moyer, H.J. Neville, D.L. Mills, D.S. Lawson[8] va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Talabalarda xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan munosabatni kuchaytirish, til kompetensiyasini mukammallashtirish, xorijiy tilda ilmiy savodxonlikni oshirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bilingval talabalarning lisoniy identivligini shakllantirishda lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlashdan iborat.

---

[6] Markham, D. Phonetic imitation, accent, and the learner. Lund: Lund University Press, 1997; Mennen, I. The realisation of nucleus placement in second language intonation, Proceedings of the 14th International Congress of Phonetic Sciences, Vol. 1, 1999. – pp. 555-558; Neufeld, G. G. On the adult's ability to acquire phonology, TESOL Quarterly, 14, 285-298. Olson, L. L. & Samuels, S. J. The relationship between age and accuracy of foreign language pronunciation, Journal of Educational Research, 1980. – pp. 263-268; Oyama, S. A sensitive period for the acquisition of a non-native phonological system, Journal of Psycholinguistic Research, 5, 1976. – pp. 261-283; Piper, T. & Cansin, D. Factors influencing the foreign accent, The Canadian Modern Language Review, 1988. – Pp. 334-342; Purcell, E. T. & Suter, R. W. Predictors of pronunciation accuracy: a reexamination, Language Learning, 1980, – pp. 271-287; Riney, T. J. & Flege, J. E. Changes over time in global foreign accent and liquid identifiability and accuracy, Studies in Second Language Acquisition, 1998. – pp. 213-244; Fathman, A. The relationship between age and second language productive ability, Language Learning, 19752. – pp. 45-253; Flege, J. E. A critical period for learning to pronounce foreign languages? Applied Linguistics, 1987. – pp. 162-177; Flege, J. E. Factors affecting degree of perceived foreign accent in English sentences. Journal of the Acoustical Society of America, 1988. – pp. 70-79; Flege, J. E. Second language speech learning: theory, findings, and problems. In Speech perception and linguistic experience: theoretical and methodological issues (W. Strange, editor), 1995. – pp. 229-273. Timonium, MD: York Press; Flege, J. E. The role of subject and phonetic variables in second language learning. In Papers from the 34th annual meeting of the Chicago Linguistic Society, II: The panels (K. Gruber, D. Higgins, K. Olsen & T. Wysocki, editors). Chicago: Chicago Linguistic Society, 1998; Flege, J. E. & Eefting, W. Cross-language switching in stop consonant perception and production by Dutch speakers of English, Speech Communication, 6, 1987. – pp. 185-202.

[7] Grosjean, F. Processing mixed language: issues, findings and models. In Tutorials in bilingualism: psycholinguistic perspectives (A. M. B. De Groot & J. F. Kroll, editors), 1997. – pp. 225-254.

[8] Hieke, A. E. Aspects of native and non-native fluency skills. PhD dissertation, University of Kansas, 1980; Hurford, J. R. The evolution of the critical period for language acquisition, Cognition, 40, 1980. – pp. 159-201; Jilka, M. The contribution of intonation to the perception of foreign accent. Stuttgart: Arbeitspapiere des Instituts fuK r Maschinelle Sprachverarbeitung, Vol. 6(3), University of Stuttgart, 2000; Lamendella, J.T. General principles of neurofunctional organization and their manifestation in primary and non-primary language acquisition, Language Learning, 27, 1977. – pp. 155-196; Lenneberg, E. H. Biological foundations of language. New York: Wiley; Long, M. H. Maturational constraints on language development, Studies in Second Language Acquisition, 12, 1967. – pp. 251-285; Meador, D., Flege, J. E. & MacKay, I. R. A. Factors affecting the recognition of words in a second language, Bilingualism: Language and Cognition, 3, 2000. – pp. 55-67; Missaglia, F. Contrastive prosody in SLA: an empirical study with adult Italian learners of German, Proceedings of the 14th International Congress of Phonetic Sciences, Vol. 1, 1999. – pp. 551-554; Moyer, A. Ultimate attainment in L2 phonology, Studies in Second Language Acquisition, 21,81-108; Neufeld, G. G. Towards a theory of language learning ability, Language Learning, 29, 1979. – pp. 227-241; Neville, H. J., Mills, D. L. & Lawson, D. S. Fractionating language: different neural subsystems with different sensitive periods, Cerebral Cortex, 2, 1992. – pp. 244-258; Oyama, S. The concept of the sensitive period in developmental studies, Merrill Palmer Quarterly, 25, 1979. – pp. 83-102; Patkowski, M. S. The sensitive period for the acquisition of syntax in a secondary language. Unpublished doctoral dissertation, New York University, 1980; Patkowski, M. S. Age and accent in a second language: a reply to James Emil Flege, Applied Linguistics, 1990; Sancier, M. L. & Fowler, C. A. Gestural drift in a bilingual speaker of Brazilian Portuguese and English, Journal of Phonetics, 25, 1997. – pp. 421-43.

Tadqiqotning vazifalari:

ikki tillilikning istiqbollari va tendensiyalarini aniqlash;

lingvistik nisbiylik nazariyasining ikki tillilikka oid jihatlarini o'rganish;

uchinchi tilni o'zlashtirishda ikki tillilikning ta'sirini ochib berish;

sotsiolingvistik kompetensiyaning bir qismi sifatida fonetik kompetensiyaning mohiyatini izohlash;

til, identivlik va ikki tillilik hodisasini o'rganish;

tilni o'zlashtirish va kognitiv rivojlanish munosabatlarini ochib berish;

bilingval talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirishdagi ustunligini asoslash.

qoraqalpoq talabalarining nutqiy portretini sotsiolingvistik va psixolingvistik tahlil usullari asosida o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bilingval qoraqalpoq talabalarining (QT) ikkilamchi lisoniy identivligi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini qoraqalpoq talabalari ikkilamchi lisoniy identivligini shakllantiruvchi sotsiolingvistik va psixolingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy, sotsiolingvistik, psixolingvistik (introspeksiya kuzatish, eksperimental usul) hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lisoniy nisbiylik nazariyasi, ikki tillilikning dinamik tabiati, jamiyatda mavjud ijtimoiy va madaniy o'lchovlar, tilni tanlash va shaxsning o'ziga xos identivligini shakllantirishdagi kognitiv jarayonlar shaxsning lisoniy identivligi shakllanishiga potensial ta'sir ko'rsatishi isbotlangan;

talabalar fonetik kompetensiyasining prosodik xususiyatlarini ochib berish orqali shaxs psixologiyasi va uning "nutqiy portreti" tamoyillari tilni o'zlashtirishdagi murakkab munosabatlar va sotsiolingvistik omillar asosida dalillangan;

qoraqalpoq talabalarida lisoniy identivlikni shakllantiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash orqali ularning "o'ziga xoslik", "subyektivlik", "individuallashtirish" kabi tushunchalar asosida yuzaga keladigan psixolingvistik portreti ochib berilgan;

ijtimoiy o'zlikni ifodalashda muhim rol o'ynaydigan nutqning fonetik aspektining yosh, jins, etnik va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqish kabi omillar ta'sirida namoyon bo'lishi amaliy lingvistika aspektida isbotlangan;

qoraqalpoq talabalarining lingvistik identivligini aniqlash va ularning fonetik kompetensiyalarini rivojlantirishda turli simulyatsiya strategiyalaridan foydalanish orqali ularning nutqining ravonligiga erishish va ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansub talabalarning xorijiy tilni o'rganishdagi nutq bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari shaxsning fonetik portretini ochishga imkon beruvchi me'yorlar bilan bog'liqligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikki tilli talabalarda lingvistik identivlikni shakllantirish uchun kognitiv lingvistika va psixolingvistika bo'yicha bir qator muhim nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

fonetik kompetensiyaga potensial ta'sir etuvchi shaxs psixologiyasi va uning "nutqiy portreti" lisoniy nisbiylik nazariyasi aspektida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar, metodologik usullar, nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, amaliy misollar til materiallariga tayanilgani, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanilgani, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olib borilgan tahlillar asosida tilning lingvistik identivligi holatini baholash – sotsiolingvistika va psixolingvistika sohalarini kognitiv nazariya nuqtayi nazaridan boyitishi, ish doirasida qo'llaniladigan usullar til identifikatorlarini o'rganishda ilmiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Kognitiv tilshunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Leksikologiya", "Amaliy tilshunoslik", "Diskurs tahlili", "Sotsiolingvistika", "Psixolingvistika" kurslarini olib boradigan oliy ta'lim muassasalarining filologiya va tarjimashunoslik fakultetlari talabalari uchun yangi uslubdagi o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda muhim manba vazifasini o'tashi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bilingval talabalarning ikkilamchi lisoniy identivligini shakllantirishning lingvokognitiv xususiyatlari mavzusida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

lisoniy nisbiylik nazariyasi, ikki tillilikning dinamik tabiati, jamiyatda mavjud ijtimoiy va madaniy mezonlar hamda ekstralingvistik omillarga asoslangan tilni tanlashdagi kognitiv jarayonlar shaxsning lisoniy identivligini shakllantirishda potensial ta'sir ko'rsatishi, til, lisoniy identivlik va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni idrok etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy natijalari va xulosalari asosida Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Erasmus + dasturi 2016-2018 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 23-noyabrdagi 661/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, tilni o'zlashtirish va kognitiv rivojlanish munosabatlari bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar loyiha doirasida manbalarni yaratishda ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilgan;

qoraqalpoq talabalarining lingvistik identivligini aniqlash va ularning fonetik kompetensiyalarini rivojlantirishda turli simulyatsiya strategiyalaridan foydalanish orqali nutqning ravonligiga erishish va muayyan ijtimoiy guruhga mansub talabalarning xorijiy tilni o'rganishdagi nutq bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari shaxsning fonetik portretini ochishga imkon beruvchi me'yorlar bilan bog'liqligi Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan amalga oshirilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalar asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion

loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 3-oktyabrdagi 656/02-son son ma'lumotnomasi). Natijada, har bir tilning o'ziga xos grammatik tuzilmalari va og'zaki konstruksiyalarining tashqi dunyoni idrok etishiga ta'siri loyiha doirasida yaratilgan darslik, o'quv-uslubiy majmua, uslubiy qo'llanma, virtual resurslarni eng so'nggi ma'lumotlar va adabiyotlar bilan boyitishda muhim asos bo'lgan;

qoraqalpoq talabalarida lisoniy identivlikni shakllantiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash orqali ularning "o'ziga xoslik", "subyektivlik", "individuallashtirish" kabi tushunchalar asosida yuzaga keladigan psixolingvistik portreti sotsiolingvistik tahlil asosida va ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansub talabalarning ikkinchi tilni o'rganishdagi nutq bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari tilning fonetik portretini ochishga imkon beruvchi me'yorlardan tashkil topganligi haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan IL-662204405 "Eksperimental fonetik laborotoriya yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 3-dekabrdagi 75/02-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi orqali loyiha doirasida o'quv adabiyotlarini yaratishda lingvistik identivlikning ikki tilli talabalarga ta'siri o'ziga xos vazifani bajarishi ko'rsatib o'tilgan;

talabalar fonetik kompetensiyasining prosodik xususiyatlarini ochib berish orqali shaxs psixologiyasi va uning "nutqiy portreti" tamoyillari tilni o'zlashtirishdagi murakkab munosabatlar va sotsiolingvistik omillar asosida - til, identivlik va madaniy munosabatlarni anglashga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi til ta'limi amaliyoti orqali paydo bo'lishi Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Erasmus + program 2016-2018 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "Modernization and internationalization of Higher Education System Processes in Uzbekistan" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 23 noyabrdagi 661/02-son ma'lumotnomasi). Natijada yaratilgan o'quv dasturi va o'quv-uslubiy majmualarda ikki tilli talabalarning uchinchi tilni o'rganishdagi ustunligi masalalari kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi borasidagi bilimlarini yanada oshirishga bevosita xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 204 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, usullari tavsiflangan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi hamda hajmi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Bilingvizm va til ta'limining xususiyatlari"** deb nomlangan birinchi bobida ikki tillilikning murakkab tabiati va uning til ta'limi sohasidagi ahamiyati keng oʻrganilgan. Turli yondashuvlar va empirik faktlarni oʻrganish natijasida olingan tushunchalar ikki tillilikning kognitiv, ijtimoiy va lingvistik mezonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bobning "Ikki tillilik: istiqbol va yoʻnalishlar" nomli faslida ikki tillilikning ta'riflari, nazariy istiqbollari, nazariy metodologik asosi va ikki tillilikning sotsiolingvistik jarayonlar bilan bogʻliqligi tahlilga tortilgan. Bilingvizm, ya'ni ikki tilni bilish, zamonaviy jamiyatda muhim rol oʻynaydi. Globalizatsiya va migratsiya jarayonlari natijasida ikki tilni bilish talabi ortib bormoqda, bu esa insonlarning shaxsiy va professional hayotida ahamiyatli oʻrin egallaydi[9]. Ikki tillilik tushunchasi ikki tilni oʻzaro qoʻllash va ulardan birining ikkinchi tilga ta'sirini ifodalaydi. Bu jarayon ikki turga boʻlinadi: *toʻliq ikki tillilik, qisman ikki tillilik va simmetrik ikki tillilik*[10], bu esa shaxslarning tilni qanday oʻzlashtirganini va uning qanchalik samarali qoʻllanilishini koʻrsatadi. Ikki tillilikning bir nechta afzalliklari mavjud. Birinchidan, bilingval shaxslar koʻproq kognitiv rivojlanish imkoniyatiga ega boʻladilar. Ular yanada rivojlangan muammoni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega boʻlib, turli vaziyatlarda mantiqiy fikrlash va yechimlarni topish qobiliyatini yaxshilaydilar[11]. Ikki tillilik, shuningdek, shaxsga madaniy koʻnikmalarni rivojlantirish imkonini beradi, bu esa ularni turli madaniyatlar va an'analar bilan tanishtiradi. Ikki tillilik ta'lim sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Bilingval ta'lim tizimlari, ya'ni ikki tilni oʻqitish usullari va ularning samaradorligi haqida koʻplab tadqiqotlar oʻtkazilgan[12]. Oʻqitish jarayonida tillarning oʻzaro ta'siri, shuningdek, oʻquvchilarning til koʻnikmalarini rivojlantirishdagi roli alohida e'tiborga molik[13]. Ijtimoiy aspektda ikki tillilik, ijtimoiy identifikatsiya va bilingval shaxslarning jamiyatdagi oʻrni bilan bogʻliq muhim masalalarni koʻrsatadi. Bilingval shaxslar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, turli madaniyatlar oʻrtasida muloqot oʻrnatishda muhim rol

---

[9] Grosjean, F., Bilingual: Life and Reality. Harvard University Press, 2010. –P. 308.
[10] Blommaert, J., The Sociolinguistics of Globalization. Cambridge University Press, 2010. —P. 244.
[11] Bialystok, E., Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. Cambridge University Press, 2001. – P. 352.
[12] Cummins, J., Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters, 2000. – –P. 320.
[13] Thomas, W. P., English Language Learners in the United States: How to Get It Right. Heinemann, 2011. – P. 152.

o'ynaydi[14]. Ikki tillilik jamiyatda turli tillarda muloqot qilish imkonini berib, madaniyatlararo almashinuvni va o'zaro tushunishni rivojlantiradi.

Yaqin kelajakda ikki tillilik tendensiyalari o'zgarishi kutilmoqda. Yangi texnologiyalar va ta'lim metodlarining rivojlanishi ikki tillilikning yangi ko'rinishlarini yaratadi[15]. Bilingual shaxslarning ijtimoiy hayotdagi roli esa ko'proq madaniyatlararo muloqot va tajriba almashinuvi bilan ifodalanadi. Psixolingvistik tadqiqotlar bilingvizmning kognitiv va lingvistik bog'liqligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchilar V. Lambert[16] tilni qayta ishlash, xotira va ijro etuvchi funksiyalarning afzalliklarini izohlaydi. Sotsiolingvistik tahlillar natijasida Dj. Fishman ikki tilli jamoalarda tildan foydalanish asnosida til va madaniyat integratsiyasi vujudga kelishini ta'kidlaydi. Uning talqinicha, til nafaqat muloqot vositasi, balki etnik o'ziga xoslik belgisi sifatida ham xizmat qiladi[17].

L. Alarkon tomonidan lingvistik, kognitiv va ijtimoiy-madaniy mezonlarni o'z ichiga olgan ikki tillilikning keng qamrovli tabiati o'rganilgan bo'lib[18], bizningcha, ikki tillilikning barqaror turlari tilda muvozanatni saqlaydi.

"Ikki tillilik aspektida lisoniy nisbiylik nazariyasi" nomli ikkinchi faslida lingvistik nisbiylik nazariyasining ikki tillilik kontekstida shaxsning olam haqidagi tasavvurlari va fikrlariga tilning ta'siri tahlil etilgan. Ma'lumki, Sapir-Vorf gipotezasi til odamlarning dunyo haqidagi tasavvurlari va fikrlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi[19]. Ushbu nazariya tillar o'rtasidagi lug'aviy va grammatik o'zgarishlarning fikrlash va ma'lumotni eslab qolishga ta'sir qilishini ko'rsatadi[20]. Ikki tillilikning uchinchi tilni o'zlashtirish va ikki tilli o'qitishga ta'siri, ya'ni ikki tillilikning uchinchi tilni o'zlashtirish bilan bog'liqligi va yosh o'rtasidagi tavofut tilni bilish, til tipologiyasi kabi omillarning uchinchi tilni o'rganishga ta'sir etishini alohida baholaydi. Lingvistik nisbiylik gipotezasiga ko'ra, ikki tilli shaxsning dastlabki ikki tilni bilishi uchinchi tilni o'rganishiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Bu nazariya uchinchi tilni o'zlashtirish jarayonida dastlabki ikki til va uchinchi til o'rtasidagi o'xshashlikning ahamiyatini alohida e'tirof etadi. Birinchi ikki tilning strukturaviy va lug'at xususiyatlari uchinchi tilnikiga to'g'ri kelganda, bilim va ko'nikmalar uchinchi tilni o'zlashtirishga yordam beradi. Tilning nisbiylik nazariyasi, bilingval shaxslarning tilni qanday o'zlashtirishi va ularning fikrlash usullariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga yordam beradi. Bilingval shaxslar, har bir tilning o'ziga xos imkoniyatlari va chegaralarini hisobga olib, dunyoqarashlarini kengaytiradilar. Bu jarayon, ularning shaxsiy va madaniy identivligiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

---

[14] Gonzalez, J., Bilingualism and Multilingualism: A Sociolinguistic Perspective. Routledge, 2012. – P. 270.

[15] Li, W. (Ed.), The Handbook of Bilingualism and Multilingualism. Wiley-Blackwell, 2017. – 800 p.

[16] Lambert, W. Culture and language as factors in learning and education. En A. Wolfgang (Ed.), Education of immigrant children. Toronto, ON: Ontario Institute for Studies in Education. 1975. — P. 54.

[17] Fishman, J. Bilingualism with and without diglossia; diglossia with and without bilingualism. Journal of Social Issues, 32, (2). 1967. – pp. 29-38.

[18] Alarcon, L. El fenómeno del bilingüismo y sus implicaciones en el desarrollo cognitivo del individuo. Colección pedagógica universitaria, 2003. – P. 29.

[19] Sapir, E. The study of language as a science. Language, 5, 1929. –pp. 207-214.

[20] Whorf, B. L. Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf. New York: John Wiley. 1956. – P. 76.; Garnham, A., & Oakhill, J. (1994). Thinking and reasoning. Oxford: Blackwell, 1994. – P. 48.

Umuman olganda, bugungi kunda bilingvizmning ijtimoiy ahamiyati kundan kunga o'sib borayotgani ko'zga tashlanadi. Bilingval shaxslar ko'pincha chet tillarni o'rganishda kognitiv ustunlikka ham ega. Ular, masalan, muammoni o'zgacha hal qilish qobiliyatiga, yuqori darajada ijodiy fikrlashga va bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Ikki tillilik o'quvchilarning e'tiborini yanada kuchaytiradi va til o'rganish jarayonida kognitiv resurslarni ko'paytiradi[21]. Bilingval ta'lim tizimi, ya'ni ikki tilda ta'lim berish usullari, o'quvchilarning chet tilini o'rganishidagi samaradorlikni oshiradi. Bilingval ta'lim metodologiyalari o'quvchilarga tilni yanada chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi va ularning til ko'nikmalarini kengaytiradi. Bu ta'lim usuli o'quvchilarning ikki tildagi madaniy kontekstni tushunishiga ham yordam beradi[22]. Jahon tillari orasida mintaqaviy hamda xalqaro aloqa tillari alohida ko'zga tashlanmoqdaki, ular xalqlar va davlatlar uchun mushtarak aloqa vositasi vazifasini bajara boshladi.

Ushbu bobdan o'rin olgan yana bir muhim tadqiqotlardan biri – lingvistik interferensiya hodisasidir. Lingvistik interferensiyaning paydo bo'lish sharti til kontaktidir. Til kontakti tushunchasi ostida ikki til jamoasi orasidagi nutqiy muloqot yoki o'quv jarayoni tushuniladi. Lingvistik interferensiya hodisasining ko'rinishlari orasida fonetik sathga xos fonetik interferensiya ko'zga yaqqol tashlanadi. Ikkinchi tildan foydalanish jarayonida dominant tilga xos fonetik sistema elementlarining namoyon bo'lishi fonetik interferensiyani vujudga keltiradi.

Nutqning madaniy jihatini ta'min etuvchi to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik nutqning shunday xususiyatiki, ular mazkur tildagi barcha so'zlovchilar tomonidan til ifodalarini bir xil tushunishni bildiradi. Bunga har bir tilda mavjud bo'lgan, til birliklarining adabiy til qoidalariga mos holda, namunali tarzda qo'llanishini belgilovchi me'yor mavjudligi tufayli erishiladi.`

Ona tiliga xos so'z va ularning semantik strukturasidagi xususiyatlarni semantik sistema ta'siri ostida o'zga tilda beixtiyor qo'llash leksik-semantik interferensiyaga olib keladi. Turli tillarda yangi narsa, voqea-hodisalarga nom qo'yish, nomlash jarayonida atashga asos qilib olingan belgilarning ko'p hollarda bir xil emasligi, o'xshatishga asos bo'lgan ko'chma motivatsiyaning har xilligi leksik-semantik interferensiyaning asosiy sabablaridan biridir.

Ko'nikmalarning ijobiy hamda salbiy ta'sirini o'rganish ko'plab leksik-semantik xatolarning tabiatini tushunishga yordam beradi va bu xatolarni bartaraf etishga doir tavsiyalar maktab, kollej, litsey, oliy ta'lim muassasalarida o'zga tilni o'qitishning optimal variantlarini tanlashda dolzarblik kasb etadi. Bunda ikki til leksik-semantik sistemalarining chog'ishtirma tahlilida til sohibiga ikkinchi tilni o'rganish jarayoni uchun muntazam qiyinchilik tug'diruvchi belgilarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Tilning grammatik sathida tillararo universal jihatlar bilan birga, uning o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Ikki tilning grammatik tipi o'zgacha bo'lgach, grammatik interferensiya sodir bo'lishi tabiiydir.

[21] Bialystok, E., Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. Cambridge University Press, 2001. – P. 352.
[22] Thomas, W. P., English Language Learners in the United States: How to Get It Right. Heinemann, 2011. – P. 152.

14

Shuningdek, bilingval talabalarning uchinchi tilni oʻrganishiga taʼsir etuvchi omillar muhim tadqiqot usuli hisoblanadi. Bular – yoshga qarab oʻzlashtirish, ikki til koʻnikmasi darajasi, motivatsiya, til oʻrganish imkoniyati va tillar oʻrtasidagi tafovut. Keltirilgan omillar xorijiy tilni oʻrganishda ahamiyatli ekani bilan bir qatorda, ularni anglash, toʻgʻri yondashish til oʻrganish jarayonini tezlashtiradi va til koʻnikmasini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari tilni oʻrganishda yuzaga keladigan turli muammolar ularni bartaraf etish usullari bilan hal etilishi kuzatilgan. Boshqa tilga xos boʻlgan madaniyatni oʻrganish, mahalliy til egalarining muloqot koʻnikmasini anglash til bilan bogʻliq ilmni mustahkamlashga yordam beradi.

Toʻgri talaffuz va samarali muloqot tilni egallash mukammalligining asosiy elementi hisoblanadi. Aytish joizki, fonetik kompetensiyani rivojlantirish tilning ravonligini oshirish bilan birga madaniyatlararo muloqot jarayonini osonlashtiradi, tilga xos boʻlgan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani oʻstiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bilingvizm, uning psixolingvistik hamda sotsiolingvistik aspektlari, lisoniy nisbiylik nazariyasining til oʻrganishdagi ahamiyati, interferensiya jarayoni va uning til oʻqitishdagi roli, uchinchi tilni oʻzlashtirishga taʼsir etuvchi omillarni anglash, shuningdek, samarali strategiyalarni ishlab chiqish – tadqiqotning muhim vazifasi ekanligi diqqatga sazovordir.

Tadqiqotning **“Bilingvizm aspektida lisoniy identivlik nazariyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tilning individual va ijtimoiy shaxsni qanday shakllantirish masalasi haqida soʻz boradi. Bunda ikki tillilikning rivojlanishda tilning oʻziga xosligi, til va madaniy kompetensiyani targʻib qiluvchi til taʼlimi amaliyotlari tahlil qilingan. Shuningdek, individual va ijtimoiy jihatlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik oʻrganiladi. J. Jozef va boshqa olimlar shaxsiy va ijtimoiy jihatlarni oʻz ichiga olgan uning ikki tomonlama tabiatiga eʼtibor qaratib, lisoniy identivlik tushunchalarini oʻrganadilar[23]. Shaxsiy va ijtimoiy oʻziga xoslik oʻzaro bogʻliq boʻlib, ijtimoiy identivlik guruhlar ichidagi munosabatdan kelib chiqadi va ijtimoiy kontekstlar bilan belgilanadi, deb taʼkidlaydi [24]. Shaxsiy va ijtimoiy identivlik tilda shakllanadi, chunki til odamlarga oʻziga xoslik va guruhga mansublikni belgilaydi. Til, shuningdek, individual va ijtimoiy oʻziga xosliklar oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrnatish vositasi boʻlib xizmat qiladi[25]. D. Blok [26] va P. Rayli[27] ijtimoiy rollarni shaxslarga huquq va majburiyatlarni beradigan, muayyan toifadagi harakatlarning bajarilishini qonuniylashtiradigan diskursiv pozitsiyalar sifatida belgilaydi. K. Novak oʻziga xoslikni shakllantirishda tilning markaziy rolini taʼkidlaydi.[28] Til shaxsiy va ijtimoiy oʻziga xosliklarni bogʻlaydi, identifikatsiya qilish vositasi sifatida ishlaydi. Til oʻziga xoslikni shakllantiradi, bu odamlarga qaysi guruhga

[23] Joseph, J. E., Identity. En Llamas C. y Watt D. Language and Identites. Edinburgh University Press Ltd., 2010. – pp. 9-17.
[24] Edwards, J., Language and Identity: Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P. 69.
[25] Joseph, J. E. Identity. En Llamas C. y Watt D. Language and Identites. Edinburgh University Press Ltd., 2010. – pp. 9-17.
[26] Block, D, Second Language Identities. London: Continuum International Publishing Group. 2007. – P. 43.
[27] Riley, P., Language, Culture and Identity. An Ethnolinguistic Perspective. New York: Continuum., 2007. – P. 98.
[28] Novak, K., Multilingualism and collective identities of the Illyrians: language biographies of Dragojla Jarneviÿ, Ljudevit Gaja and Ivan Kukuljeviÿ Sakcinski. Zagreb-Rijeka: Central Europe. 2012. – P. 267.

mansubligini ifoda etish imkonini beradi, shu bilan birga, shaxsiy va ijtimoiy identivlik o'rtasidagi tenglikni va qarama-qarshilikni soddalashtiradi.

J.E. Joseph o'z tadqiqoti mohiyatini "shaxsning identivligi – bu uning kimligidir", degan oddiy izohdan boshlaydi[29]. Ushbu asosiy ma'noda, individual identitetning ikki jihati mavjud: *birinchisi,* shaxsni boshqalardan ajratib turadigan va shu tarzda deiktik funksiyani bajaradigan ismi; *ikkinchisi* esa, shaxsning mohiyatini tashkil qiladigan chuqur va noaniq jihat bo'lib, bu shaxsni asosiy ma'noda ifodalaydi. Boshqacha aytganda, identivlik o'zining o'ziga xosligini anglatadi: birinchi navbatda, ism orqali (deiktik funksiya) va shaxsning o'zida, bu esa faqatgina o'sha shaxsga xos bo'lgan mohiyat asosida (semantik funksiya) namoyon bo'ladi. Shunga qaramasdan, Jozef shaxsning identivligi turli shaxsiy rollarda ham namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bu esa yuqorida qayd etilgan qarama-qarshiliklarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi; tenglikdagi identivlik farqlilik bilan aloqada bo'lganida tan olinadi, eksklyuzivlik, identivlik esa asosan tenglikdagi identivlik bilan to'qnashganda shakllanadi.

Shunga o'xshash ma'noda, J. Edwards shaxsiy va ijtimoiy identitetlar o'rtasida aniq chegaralarni belgilashning imkonsizligini ta'kidlaydi, chunki barcha shaxsiy xususiyatlar biz a'zo bo'lgan guruh(lar) ichidagi ijtimoiylashuvdan kelib chiqadi va mavjud ijtimoiy kontekst inson imkoniyatlarining mavjud to'plamini belgilaydi[30]. Riley[31] esa turli interaksionist sotsiologlar, psixologlar, marksistlar, ijtimoiy konstruktivistlar, fenomenologlar va ekzistensialistlar o'rtasidagi qarashlar va tafovutlarni muhokama qilar ekan, shaxsiyat masalasining interditsiplinar tabiatiga e'tibor qaratadi, ammo baribir ular ikki nuqtada bir fikrga keladi:

Shaxsiyatning manbayi ijtimoiydir. U jamiyat va boshqa ijtimoiy a'zolar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasidir. Bizning interaktiv tajribamizni, jumladan, til tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va boshqariladigan tajribamizni aks ettirish, kimligimizni shakllantirish imkonini beradi, ya'ni biz interpersonaldan intrapersonalga o'tgan holda, o'zimiz kim ekanligimizni anglaymiz. Shu tariqa, jamiyat, til va interaksiya tuzilmalari shaxsiyatning manbayi sifatida xizmat qiladi.

Riley yana ta'kidlaydiki, shaxsning shaxsiyati boshqa subyektlardan mustaqil holda mavjud bo'lgan tug'ma xususiyat sifatida ko'rilishi mumkin bo'lsa-da, u boshqa insonlarning vositachiligi orqali shaxsga nisbatan aniqlanadi. Boshqalar doimo bizni egallashimiz kerak bo'lgan yoki boshqalar egallashimizni istagan rollar va pozitsiyalar haqida ko'rsatmalar berib, bizga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, biz a'zo bo'lgan yoki a'zo bo'lmagan guruhlar orqali o'z identivligimizni shakllantiramiz. Shu jihatdan qaraganda, identivlikni boshqalarga nisbatan tushunish mumkin, chunki boshqalar uning asosiy shakllanish manbayi hisoblanadi. Buni hisobga olgan holda, ijtimoiy identivlik ijtimoiy jarayonlar orqali, xususan, boshqalar bilan kommunikativ aloqalarimizda, intersubyektiv bog'lanishlar orqali shakllanadi, namoyon bo'ladi, taqsimlanadi va muzokara qilinadi. Shu bilan birga, biz doimiy ravishda o'z identivlik talablarimizni ham yuborib turamiz. Shu

---

[29] Joseph J. E., Identity. En Llamas C. y Watt D. Language and Identites. Edinburgh University Press Ltd., 2010. –pp. 9-17.
[30] Edwards, J., Language and Identity: Introduction. Cambridge: Cambridge University Press.,2009. – P. 69
[31] Riley, P., Language, Culture and Identity. An Ethnolinguistic Perspective. New York: Continuum, 2007. – P. 98.

ma'noda, Riley ijtimoiy identitivlikni inson a'zo bo'lgan barcha kichik guruhlar yig'indisi sifatida belgilaydi. U kuzatgan ijtimoiy identivlik parametrlarida yashash joyi, etnik kelib chiqishi, din, siyosiy qarashlar, oilaviy holat, sevimli mashg'ulotlar, tillar kabi misollarni topish mumkin. Edwards yana shuni qo'shimcha qiladiki, yuqorida keltirilgan ijtimoiy guruhlardan ba'zilari, masalan, etnik kelib chiqishi yoki jins kabilar ixtiyoriy bo'lmagan xususiyatlar hisoblanadi va odatda uzoq muddatli ahamiyatga ega. Ammo ijtimoiy toifalar, masalan, jins yoki millat, Edwardsning ta'kidlashicha, "insonlarni ijtimoiy darajada o'ylashda eng muhim bo'lib, bu o'z-o'zini belgilash jarayonlari yoki guruh tashqarisidagi boshqalar tomonidan belgilash orqali sodir bo'ladi[32]."

Ko'rib turganimizdek, bizning har birimiz, shubhasiz, ko'p qirralarga ega shaxsiyatlar yig'indisiga egamiz. J.E. Joseph[33]ning fikriga ko'ra, bu kamida ikki ma'noda kuzatilishi mumkin. Birinchi ma'noda bu boshqalarning ongida mavjud bo'lgan to'liq "o'zlik" tushunchasidir. Josephning izohlashicha, har bir inson siz bilan muloqot qilganida, siz haqingizda o'z versiyasini yaratadi. Ular bu tasavvurni siz va boshqa odamlar haqida kuzatgan narsalariga asoslanib shakllantiradilar va uni o'zlarining noyob o'zlik tuyg'usi asosida yaratilgan qolipga soladilar. Joseph identivlikning ko'p qirraliligini kuzatgan ikkinchi ma'noda, har bir insonning atrofidagi odamlarga nisbatan turli rollarni bajarishini ta'kidlaydi — ona, rahbar, do'st, opa-singil va hokazo. Shu ma'noda, identivlik biz qaysi odamlar bilan bo'lganimizga qarab o'zgaradi. Block[34] ijtimoiy identivliklarning ko'pligi, ularning ko'pchiligi bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ahamiyat va kontekstual cheklovlar masalasini ko'taradi, bu cheklovlar identivlik repertuarining bir qismini boshqalardan ko'ra kuchliroq harakatga keltiradi. U bu jarayonni turli ijtimoiy rollarni yoki vaziyatga qarab, "niqoblar"ni qabul qilishga o'xshash, deb baholaydi.

Tilni tanlash kontekst, auditoriya va shaxsiy omillarga qarab belgilanadi. Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u madaniyatlararo almashish imkonini beruvchi ramziy tizim bo'lib xizmat qiladi. Madaniy farqlar umumiy ma'nolar almashinuvi orqali hosil bo'ladi va til bu farqlarni namoyon qilish bilan shug'ullanadi. Madaniy o'ziga xoslik, madaniy farq, madaniy sxema konsepsiyasi ushbu ma'no yaratuvchi tarmoqning interaktiv tabiatini belgilaydi va imtiyozli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tushunchalarni har tomonlama anglash uchun lingvistik va madaniy identivlik o'rtasidagi bog'liqlikni tan olish juda muhim.

Tadqiqotning ushbu bobida identivlikning ikki ko'rinishi shaxsiy va ijtimoiy deb nomlangan tushunchalari alohida e'tiborga molik jihatlariga ko'ra tavsiflangan. Shaxsiy identivlik shaxsiy e'tiqodlarni, qadriyatlarni, tajribalarni, insonga xos bo'lgan his-tuyg'ularni anglatsa, ijtimoiy identivlik shaxsning jamiyatda egallagan o'rni, ijtimoiy muloqot va munosabatlari, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi, etnik kelib chiqishi, millati, dini kabi ijtimoiy qatlamga mansub tushunchalar bilan izohlanadi. Ular o'rtasidagi munosabat esa murakkab va dinamik jarayon

---

[32] Edwards, J., Language and Identity: Introduction. Cambridge: Cambridge University Press., 2009. – P. 75.
[33] Joseph J. E., Identity. En Llamas C. y Watt D. (coords.) Language and Identites. Edinburgh University Press Ltd. 2010, – pp. 9-17.
[34] Block, D. (2007), Second Language Identities. London: Continuum International Publishing Group. 2007, – P. 43

hisoblanib, shaxsning o'zini qay tarzda anglashi va ijtimoiy qatlamda boshqalar tomonidan qanday e'tirof etilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqotda lisoniy va madaniy identivlik o'rtasidagi munosabatlar, tilning madaniyatni ifodalash vositasi ekanligi, qadriyatlar, an'analar til yordamida ko'chirilishi, madaniyat haqidagi bilim lisoniy olamni anglashda juda muhimligi to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bu jarayonni to'g'ri anglash chet tilini o'rganishda samara berishi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning **"Til va kognitiv jarayon: Til ko'nikmalari transformatsiyasi"** deb nomlangan uchinchi bobida ikki tillilik sohasida til ko'nikmalarini shakllantirishni o'rganadi, uning kognitiv qobiliyatlarga chuqur ta'sirini yoritadi. Til o'rganish va kognitiv rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik, bilingval shaxslar uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Ikki tillilik, nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki kognitiv funksiyalarni ham o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bo'limda, ikki tillilikning kognitiv rivojlanishdagi afzalliklari va til o'rganish jarayoni tahlil qilinadi. Bilingval shaxslar, ikki tilni qo'llash jarayonida ko'plab kognitiv funksiyalarni rivojlantiradilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bilingval shaxslar, diqqat, xotira va muammolarni hal qilishda yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ikki tilni bilish, kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi va shaxslar o'rtasidagi tafovutlarni ko'rishga yordam beradi. Til o'rganish jarayoni, shaxsning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bilingval shaxslar, yangi tilni o'rganish jarayonida analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradilar. Til o'rganish shaxsning umumiy kognitiv ko'nikmalarini kengaytiradi va o'z fikrlarini ifoda etishda erkinlik beradi[35]. Ikki tillilik, shaxslarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham oshiradi. Bilingval shaxslar ikki tilni bilganliklari sababli, turli nuqtayi nazardan fikr yuritish va muammolarni yangi usullarda hal qilish imkoniyatiga ega. Bu ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va shaxslarni innovatsion g'oyalar yaratishga undaydi[36]. Bilingval shaxslar, ikki tilni o'rganish jarayonida turli strategiyalarni qo'llaydilar. Ular o'z tillarini parallel ravishda o'rganish, kontekstual o'rganish va amaliyotga asoslangan yondashuvlarni qo'llash orqali kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu strategiyalar til o'rganish jarayonini osonlashtiradi va til ko'nikmalarini mustahkamlaydi[37].

Bilingval shaxslar ikki tilni bilganliklari sababli yangi tilni o'rganishda xotira, diqqat va muammolarni hal qilish qobiliyatlaridan foydalanadilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilingval shaxslar yangi so'zlar va iboralarni osonroq yodlashadi va til ko'nikmalarini tezroq rivojlantiradilar[38]. Bilingval shaxslarning til o'rganish jarayonida lingvistik va metalingvistik xabardorlik rivojlanadi. Ular tilning strukturasi, grammatikasi va leksikasiga nisbatan yuqori xabardorlikka ega bo'ladilar. Bu yangi tilni o'rganishda ularga yordam beradi va qiyinchiliklarni

[35] Cummins, J., Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters, 2000. – P. 320.

[36] Kecskes, I., Intercultural Pragmatics: Theoretical and Practical Perspectives. Oxford University Press, 2013. – P. 288.

[37] Lightbown, P. M. & Spada, N., How Languages Are Learned. Oxford University Press, 2013. – P. 384.

[38] Bialystok, E., Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. Cambridge University Press, 2001. – P. 352.

yengish imkoniyatini oshiradi[39]. Bilingval shaxslar chet tilini o'rganish jarayonida madaniy farqlarga moslashuv qobiliyatini rivojlantiradilar. Ular ikki madaniyat o'rtasida muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari sababli, yangi madaniyatni o'rganish va unga moslashish jarayonida yanada muvaffaqiyatli bo'ladilar. Madaniy farqlarni hisobga olish chet tilini o'rganish jarayonini boyitadi va shaxslarning global fikr doirasini kengaytiradi[40].

Bilingval shaxslar uchun chet tilini o'rganish jarayoni ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Ularning kognitiv qobiliyatlari, til o'rganish strategiyalari va madaniy moslashuv qobiliyatlari, chet tilini o'rganish jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Ikki tillilik shaxslarning global ijtimoiy kontekstlarda o'z o'rnini topishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur bobning fasllarida ingliz tili uchinchi til sifatida ikki tillilikning ko'p qirrali afzalliklarini muhokama qiladi, lingvistik kompetensiya, kognitiv imtiyozlar, madaniy tushunish va kasbiy istiqbollarni tadqiq etadi. U ikki tillilikning ta'lim va jamiyatga ijobiy ta'sirini ta'kidlab, uning da'volarini qo'llab-quvvatlash uchun keng qamrovli izlanishlarga asoslanadi. Kognitiv rivojlanish nuqtayi nazaridan ikki tilli bo'lishning afzalliklari ikki tillilikning til rivojlanishining turli jihatlariga, jumladan, kognitiv qobiliyatlar, metallingvistik xabardorlik va kommunikativ ko'nikmalarga ijobiy ta'sirini o'rganadi.

Muayyan kognitiv fanlarning boshqa qoidalaridan farqli ravishda tilshunoslikda insonga xos kognitiv tuzilma va jarayonlar tahlil etiladi. Bunda birinchi o'rinda insonning tilni o'zlashtirish mexanizmi va lisoniy bilimlar tuzilishi tamoyillarini sistemali tasniflash va izohlash turadi. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslikda quyidagilarni o'rganishga e'tibor qaratiladi: 1. Tilni o'zlashtirish va uning tuzilish tamoyillari hamda mental xususiyatlarning namoyon bo'lishi. 2. Til birliklari qo'llanilishining kognitiv talqini. 3. Idrok qilishning kognitiv mexanizmi.

Bolalarda til rivojlanishi – kognitiv o'sish, metalingvistik xabardorlik va muloqot qobiliyatlari uchun juda muhim bo'lgan murakkab jarayondir. Kognitiv rivojlanish xotira, e'tibor va muammolarni hal qilish orqali tilni o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlaydi. Metalingvistik xabardorlik til qoidalarini tushunish va lingvistik elementlarni manipulyatsiya qilish, savodxonlik ko'nikmalarini oshirishni o'z ichiga oladi. Ikki tillilik kognitiv rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, nazorat va moslashuvchanlik kabi funksiyalarni yaxshilaydi. Shuningdek, u turli lingvistik kontekstlarga ta'sir qilish orqali shaxslarning metallingvistik xabardorligini oshiradi. Ikki tilli shaxslar ilg'or kommunikativ ko'nikmalarni, turli suhbatdoshlarga moslashishni va verbal signallarga sezgirlikni namoyish etadilar.

Ikki tillilik uchinchi tilni o'zlashtirishda raqobatbardosh ustunlikni ta'minlaydi, til va madaniyatni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki tillilar lug'at, grammatika va muloqot kabi sohalarda bir nechta tillarni bilishi tufayli ustunlikka ega bo'ladi. Metalingvistik xabardorlik ikki

---

[39] Kroll, J. F. & Bialystok, E., Understanding the Consequences of Bilingualism for Language Processing and Cognition. En Li, W. (Ed.), The Handbook of Bilingualism and Multilingualism. Wiley-Blackwell, 2013. – pp. 21-46.

[40] Piller, I., Linguistic Diversity and Social Justice: An Introduction to Applied Sociolinguistics. Oxford University Press, 2017. – P. 304.

tillilarga lingvistik tuzilmalarni to'liq tushunish va boshqarishga yordam beradi. Diqqatni nazorat qilish va kognitiv moslashuvchanlik kabi afzalliklar ikki tillilarga yangi tillarga osonroq moslashish imkonini beradi. Ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan, ikki tillilar turli jamoalar va til almashinuvi bilan aloqani kuchaytirishdan foyda ko'radi. Motivatsiya asosiy rol o'ynaydi, ikki tillilar yuqori ichki motivatsiya va til o'rganish bilan mustahkam aqliy va ruhiy moslashuvchanlik ko'nikmasiga ega bo'ladilar hamda mavjud til ko'nikmalaridan foydalangan holda tillararo aloqalarni o'rnatadigan kengroq usullarni qo'llaydilar.

Tadqiqotning ushbu bobida til o'rganishda shaxsiy sifatlar va ruhiy holatning ahamiyati to'g'risida ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Ekstravert va introvert shaxsiy xususiyatlarning til o'rganishdagi o'rni, ehtiyotkor va tavakkalchi shaxslar o'rtasidagi farq ularning til o'rganishiga qay darajada ta'sir etishi, muloqot kompetensiyasining o'sishida shaxsiy sifatlarning roli, ruhiy motivatsiya va ichki ishonch hosil etish kabi muhim psixolingvistik tadqiqotlar amalga oshirilgan[41].

Xulosa qilib aytganda, bilingvizm ta'sirida turli murakkab grammatik qurilmalarning tuzilishi, turli shakldagi gaplarning yaratilishi va lingvistik shakllarning rivojlanishi kabi ijobiy natijalarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari metalingvistik idrokning o'sishi bilingvizmning asosiy afzalliklaridan biri hisoblanadi. Ya'ni bunday idrok tilni analiz qilish, qiyoslash va turli komponentlarga asoslanib, tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, bilingvizm lug'at boyligini keskin oshiradi, til qurilmalari haqidagi bilimni mustahkamlaydi, metalingvistik idrokni kuchaytiradi. Bunday afzalliklar turli tillardagi mukammallikning rivojlanishiga, muloqot samarasining o'sishiga, fikrlarni aniq va ravon bayon etishda muhim. Bilingvizmning aqliy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan. Shulardan eng muhimi bilingvizm, ya'ni ikki tilga ega bo'lish muammoni hal etishda aqliy faoliyatni kuchaytirishi isbotlangan, bilingvizm ta'sirida bir vaqtda bir nechta amallarni bajarish qobiliyati rivojlanishi keltirilgan, shuningdek, bilingvizm xotirani mustahkamlashi kabi bir qator afzalliklar dissertasiyada asosiy ta'sir etivchi omillar sifatida keltirilgan. Bu qobiliyatlar, avvalo, madaniy tushunchani o'stirishi va moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirishi muhim aspektlardan biri ekanligi yoritilgan. Bunday qobiliyatlar o'z o'rnida kasbni rivojlantirishda, jamiyatda ustunlikka erishishda yengilliklar yaratadi va ijobiy afzalliklarga erishishda muhim aspekt hisoblanadi.

Bobda shuningdek, til identivligi va fonetik qobiliyat masalasiga to'xtalib o'tilgan. Unda til identikligining shakllanishi, ijrochi funksiya va bilingval shaxslarning fonetik qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Ijrochi funksiya tilni ishlatish qobiliyatini anglatadi va bu bilingval shaxslarning nutqidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Bilingval shaxslar ikki tilni ishlatishda ijrochi funksiyalarni samarali ravishda amalga oshiradilar. Ular kontekstga mos ravishda tilni o'zgartira oladilar, bu esa ularning til o'rganish jarayonini mustahkamlaydi. Fonetik qobiliyat, shaxsning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va ularni aniqlik bilan

---

[41] Jung, C. G. Psychological Types (H.G. Baynes, Trans.). Princeton University Press. 1971 (Original work published 1921, Chapter 10. – pp. 330-407.

eshitish qobiliyatini anglatadi. Bilingval shaxslarda fonetik qobiliyat yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ular, bir tildan ikkinchisiga o'tishda tovushlarni ajratishda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladilar. Bu chet tilini o'rganishda ustunlik beradi va til o'rganish jarayonini osonlashtiradi[42]. Til identivligi va fonetik qobiliyat o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Bilingval shaxslarning til identivligi ularning fonetik ko'nikmalariga ta'sir qiladi. Ular o'z identivliklarini ifoda etishda va nutq jarayonida fonetik ko'nikmalarini ishga soladilar. Shuningdek, fonetik qobiliyat til identivligining shakllanishiga yordam beradi, chunki bilingval shaxslar, ikki tildagi talaffuz farqlarini aniqlashda va ularga mos ravishda muloqot qilishda ustunlik ko'rsatadilar[43].

"Lisoniy identivlik va xorijiy til fonetik kompetensiyasi" deb nomlangan to'rtinchi bobda fonetik kompetensiyaning sotsiolingvistik kompetensiya bilan uzviylikda shaxsning aqliy qobiliyati, fazilatlariga bevosita ta'sir qilishi izohlangan. Fonetik ko'nikma nutq so'zlash jarayonida shaxsning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va ularni eshitish qobiliyatini anglatadi. Ushbu bo'limda, fonetik ko'nikmaning sotsiolingvistik kompetensiya doirasidagi o'rni, uning ta'siri va ahamiyati tahlil qilinadi. Sotsiolingvistik kompetensiya shaxsning tilni ijtimoiy kontekstda to'g'ri ishlatish qobiliyatini anglatadi. Fonetik ko'nikmalar, shaxsning tilni tushunishi va muloqotda muvaffaqiyat qozonishida muhim rol o'ynaydi[44].

Talaffuz nutqning fonetik jihatdan to'g'ri bo'lishi kerakligini anglatadi. Bilingval shaxslar ikki tilda gaplashishda talaffuz ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradilar. Ular har ikki tildagi tovushlarni to'g'ri ifoda etishda, ijtimoiy muhitga mos ravishda talaffuzni o'zgartirishda ustunlik ko'rsatadilar. Bu ularning muloqotdagi muvaffaqiyatini oshiradi va ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi[45].

Xorij tilshunoslari va metodistlari doimo to'g'ri talaffuzni o'rgatish usullarini tanlash masalasiga katta e'tibor qaratganlar (H. Braun, V.A. Vinogradov, N.D. Galskova, O. Espersen, I.A. Zimnya, U. Littlvud, U. Rivers)[46]. Boshqacha aytganda, nutqiy muloqotlarni hosil qilish va tushunish tushunchasi ingliz tilini o'qitish metodikasining asosidir. Hozirgi vaqtda madaniyatlararo nutqiy muloqot fenomenini yanada chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar nutqni tushunish mexanizmlarini yanada chuqurroq ko'rib chiqishni talab qiladi.

Til bilish ko'nikmalari barcha nutqiy faoliyat turlari bo'yicha yuqori darajadagi mahoratni shakllantirishni, shuningdek, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini ta'minlashni taqozo etadi. Chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarni mazkur til so'zlashuvchilari tomonidan tushuniladigan va ularni tushuna oladigan darajaga yetkazishdir. Bir tomondan, o'quvchilar nutqiy xabarlarni to'g'ri tushunish uchun rivojlangan eshitish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

---

[42] Kuhl, P. K., A Spanish/English bilingual advantage in phonetic processing. En Proceedings of the 2000 International Conference on Spoken Language Processing, 2000. – P. 169.

[43] Bialystok, E., Bilingualism: The Good, The Bad, and The Unknown. En Li, W. (Ed.), The Handbook of Bilingualism. Wiley-Blackwell, 2009. – pp. 23-34.

[44] Hymes, D., Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach. University of Pennsylvania Press, 1974. – P. 218.

[45] Grosjean, F., Bilingual: Life and Reality. Harvard University Press, 2010. – P. 308.

[46] Johnston. W Education on Trial: Strategies for the Future, Ed. SanFrans. 2003. – P. 63.

Ikkinchi tomondan, ular olingan ma'lumotga to'g'ri javob bera olishlari va o'zlarining chet tilidagi nutqini to'g'ri kodlash uchun zarur artikulyatsion ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Fonetik qobiliyat madaniy kontekstga mos ravishda rivojlanadi. Bilingval shaxslar o'z madaniyatlari bilan bog'liq tovushlarni va talaffuzlarni o'rganish orqali fonetik ko'nikmalarini mustahkamlashadi. Ular, yangi madaniyatga moslashish jarayonida fonetik qobiliyatlarni qo'llash orqali ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradilar va muloqotda yanada muvaffaqiyatli bo'ladilar[47]. Bilingval shaxslarning fonetik ko'nikmalari muloqotdagi muvaffaqiyatni oshirishda va madaniy kontekstga moslashishda muhim rol o'ynaydi. Fonetik qobiliyat til o'rganish jarayonini boyitadi va shaxslarning tilga bo'lgan munosabatini kengaytiradi.

Nutq portreti shaxsning tilni ishlatish uslubi va tovushlarni talaffuz qilishidagi o'ziga xosliklarni anglatadi. Ushbu bo'limda qoraqalpoq va rus tillari kontekstida bilingval shaxslarning nutq portreti tahlil qilinadi, shuningdek, ularning ijtimoiy identivliklari va uning madaniy muhit bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi.

Nutq portreti shaxsning tilni ishlatishidagi individual xususiyatlarini, talaffuzini va grammatik tuzilishini aks ettiradi. Bu shaxsning til identivligini belgilaydi va uning ijtimoiy kontekstda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bularning barchasi o'quvchiga boshqa madaniy muhitdagi shaxslar bilan o'zaro munosabatda bo'lish jarayonida turli og'zaki va kognitiv faoliyat bilan shug'ullanish imkonini beradi. Ushbu o'rinda fonetik interferensiyaning ahamiyati muhimdir.

Fonetik interferensiya ta'sirida vujudga kelgan shaxs nutqidagi talaffuz o'zgarishlarini tadqiq etish, ayniqsa, uning kommunikativ ta'siri nuqtayi nazaridan ahamiyatli. Til sohibi suhbatdoshining talaffuziga bo'lgan munosabat ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Mazkur munosabat til sohibining ijtimoiy, madaniy, siyosiy, milliy va boshqa shaxsiy qarashlari majmuasi, tasavvurlari hamda uning til tajribasi ta'sirida vujudga keladi. Nutqiy munosabatning talaffuzdagi xususiyati suhbatdosh shaxsi haqidagi mulohazaning shakllanishida yetakchi rol o'ynaydi. Til sohibi shaxsning o'zga til jamoasiga taalluqli ekanligini, avvalo, uning talaffuzi xususiyatiga ko'ra, ya'ni so'zlovchining ona tili fonetikasining interferent ta'siri natijasida ko'rinadigan nutqning o'zgachaligidan aniqlaydi. Aksent so'zlovchining shaxsini aniqlashda eng muhim ko'rsatkichdir.[48]

Aksent termini asli lotincha ("accyentus" – urg'u) bo'lib, u ikki ma'noda ishlatiladi: 1. Zamonaviy tilshunoslikda urg'u ma'nosida emas, balki ikkinchi tilni o'rganayotgan shaxs talaffuzida ona tilining fonetik xususiyatlari mavjudligi ma'nosida ishlatiladi. 2. Mazkur so'zni urg'u terminining sinonimi sifatida ishlatish uning ikkinchi ma'nosidir. Aksent termini shevaga xos fonetik xususiyatlarni tilning adabiy shaklida qo'llab yuborish ma'nosida ham ishlatiladi. So'zlovchining o'zga til talaffuz normalaridan chekinishlari, bir tomondan, aksent bilan gapirayotgan shaxsning u yoki bu tilga mansubligini aks ettiruvchi xususiyatdir. Shu bilan birga,

[47] Piller, I., Linguistic Diversity and Social Justice: An Introduction to Applied Sociolinguistics. Oxford University Press, 2017. – P. 304.
[48] Вишневская Г.М. Билингвизм и его аспекты. – Иваново: Ивановский университет, 1997. – С. 21.

aksentli nutq har qanday o'zga tilda gapirayotgan shaxsga xos bo'lgan umumiy belgilarga ham ega. Shaxs nutqidagi ikkinchi til talaffuz normalari buzilishining ham umumiy, ham o'ziga xos belgilari mazkur til sohibining idrok hamda til ongida aksentli nutqning umumiy ko'rinishini tashkil qiladi. Talaffuz o'zgachaligiga konkret va atroflicha yondashilsa, u fonetik sathning faqat unli va undoshlarigagina xos bo'lmay, balki urg'u, intonatsiya va nutq tovushlarining kombinatorikasi va distributsiyasida ham namoyon bo'ladigan hodisadir.

Fonetik kompetensiya lingvistik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi ekanligi va uning ijtimoiy-lingvistik kompetensiyadagi rolini ko'rib chiqsak, u yanada muhimroq ekanligini alohida e'tirof etish joiz. Sotsiolingvistik kompetensiya deganda tildan turli ijtimoiy sharoitlarda to'g'ri foydalanish, ijtimoiy mavqe, mintaqaviy shevalar va madaniy me'yorlar kabi omillarga asoslangan tildan foydalanishdagi o'zgarishlarni hisobga olish tushuniladi.

Sotsiolingvistik kompetensiya kontekstida fonetik kompetensiya turli ijtimoiy guruhlarda farqlanishi mumkin bo'lgan fonetik xususiyatlarni tushunish va to'g'ri foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu tafovutlar yosh, jins, etnik kelib chiqish va ijtimoiy-iqtisodiy genezis kabi omillar ta'sirida talaffuz, intonatsiya va nutq shakllaridagi farqlarni o'z ichiga olishi mumkin[49].

Nutqning fonetik aspekti – ijtimoiy o'zlikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Sotsiolingvistik kompetensiya muayyan ijtimoiy guruhlarga moslashish yoki ulardan ajralib turish uchun o'zini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu ma'lum bir jamoa yoki ijtimoiy sinf bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos nutq shakllaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

Qoraqalpoq talabalarining xorijiy til (ingliz tili) fonetik kompetensiyasi o'zbek tilini o'z ona tili sifatida biladigan o'zbek talabalariga nisbatan yuqori ekanligi kuzatilib, qoraqalpoq talabalarining nutqiy portreti ularning chet tilidagi fonetik kompetensiyasiga ta'sir ko'rsatishi mumkinmi degan tadqiqot farazi ilgari surildi. Qoraqalpoq talabalarining nutqiy portreti ularning o'z ona tili sifatida foydalanadigan qoraqalpoq va rus tillariga nisbatan ularning lingvistik o'ziga xosligini ifodalaydi. Qoraqalpoq talabalarida lingvistik identivlikning shakllanishiga xizmat qiluvchi omillardan biri – ularning turmush o'rtoqlariga va yoshi kattalarga "sen" va "ti" deb murojaat qilishlari, ya'ni ikkinchi shaxs birlik olmoshini qo'llashlaridir. Bu o'zbek tilidan farqli o'laroq, qoraqalpoq va rus tillarida "o'ziga xoslik", "subyektivlik", "individuallashtirish" kabi tushunchalar bilan bog'langan.

To'g'ridan to'g'ri kuzatish, intervyu va anketa so'rovi kabi usullar orqali lisoniy identivlikning talabaning chet tilida fonetik ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallash qobiliyatini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynashi taklif etiladi. Qoraqalpoq talabalarining o'z ona tillari ta'sirida namoyon bo'layotgan ishonch ularga to'g'ridan to'g'ri xorijiy tilga taqlid qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, nutq bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash orqali ikkilamchi til fonetik portreti shaxsning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini aniqlash imkonini beradi.

---

[49] Hymes, D. On communicative competence. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings,* Harmondsworth: Penguin: 1972. – pp. 269-293.

Tadqiqotda qoraqalpoq talabalarining ijtimoiy-psixolingvistik xususiyatlari – ularning chet tilida fonetik kompetensiyani egallash qobiliyatiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganish maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida tahsil olayotgan qoraqalpoq talabalari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

Tadqiqot savollarini muhokama qilish va kerakli ma'lumotlarni to'plash uchun asosiy vosita sifatida uch bo'limdan iborat onlayn so'rovnomadan foydalanildi. Dastlabki bosqichda ishtirokchilarning yoshi, jinsi va T1 va T2 ni o'rganishni boshlagan yoshi kabi ma'lumotlar to'plandi. Ikkinchi qismda ishtirokchilardan bir nechta tillarni bilish darajasini baholash so'raldi. Savollar asosida ularning o'qish, yozish, gapirish, tinglash ko'nikmalari, shuningdek, ikkinchi va uchinchi tillarda so'zlashish darajalari aniqlandi. Ishtirokchilar o'zlarining bir nechta tillarni bilish darajasini 1 dan 9 gacha bo'lgan shkala bo'yicha baholadilar. Shkala bo'yicha 1 "juda yomon" va 9 "a'lo" javoblariga teng. Keyingi bo'limda ishtirokchilarning talaffuzga bo'lgan munosabatiga qaratilgan to'qqizta fikr mavjud edi. Ishtirokchilar uchinchi qismdagi fikrlarga 1 dan 9 gacha bo'lgan shkaladan foydalangan holda javob berishlari so'ralgan,

O'rganish natijalariga ko'ra, so'rovnomada qatnashgan 97 nafar qoraqalpoq talabalaridan 12 nafari erkak va 85 nafari ayol 19-22 yosh oralig'ida. 97 nafar talabadan 79 nafari ingliz tilini 15-16 yoshda o'rganishni boshlagan, qolgan 16 nafari esa ingliz tilini o'rganishni bolalikdan boshlagani aniqlangan. Deyarli barcha talabalar rus tilini o'z kundalık nutqlarida qo'llashadi. Binobarin, ular qoraqalpoq tilini ona tili, rus tilini esa ikkinchi ona tili sifatida bilishadi. Shuningdek, 85 talaba koreys, ispan, italyan, nemis va boshqa turli tillarni 1 kurs bakalavr bosqichidan mukammal o'rganayotganlari aniqlandi. "Oilangiz a'zolari kattalarga qoraqalpoq tilida "sen" (ikkinchi shaxs, birlik) deb murojaat qiladimi?" degan savollarga 95 nafar talaba "Ha" deb javob berdi va "Ayol kishining o'z turmush o'rtog'iga qoraqalpoq tilida "sen" (ikkinchi shaxs, birlik) deb murojaat qiladimi?" degan savolga ham shu tarzda javob berishgan.

So'rovnomaning ikkinchi qismida ishtirokchilardan ko'p tillarni bilish darajasini o'zlari baholashlari so'ralgan (1-, 2- rasmlar). Ushbu baholash o'qish, yozish, gapirish va tinglash ko'nikmalari, shuningdek, ularning ikkita ona tili (T1, T2) va xorijiy (T3, T4) tillarida so'zlashish ravonligi darajalarini qamrab oldi.


1-rasm. Talabalarning ingliz tilini bilish darajasi


2-rasm. Talabalarning ikkinchi chet tilini bilish darajasi

So'rov natijalariga ko'ra, ingliz tilini bilishning yuqori darajasini ishtirokchilarning 90% nutqi, ravonligi va intonatsiyasini 9 ballik shkaladan 8 dan 8,5 gacha va boshqa komponentlarni 6,5 dan yuqori baholashgan. Qoraqalpoq va rus tillariga kelsak, ular deyarli barcha komponentlar bo'yicha maksimal ballda baholadilar.

Ularning T4 darajasi haqida gap ketganda, eng yuqori komponentlar nutq, urg'u va ravonlik bo'lib, 6 dan 7 gacha ball bo'lgan, boshqa komponentlar ham 5 dan yuqori baholashgan. Ikkinchi chet tilini (T4) bilish darajasi ingliz tilini bilish darajasida biroz pastroq ekanligini, uni ingliz tilidan ko'ra kechroq universitetda o'rgana boshlashgani bilan izohlangan.

So'rovnomaning uchinchi qismi to'qqiz mezondan iborat bo'lib, (3-rasm) unda ishtirokchilarning talaffuzga bo'lgan munosabatiga e'tibor qaratildi (4-rasm). Ulardan 1 dan 9 gacha bo'lgan shkala yordamida ushbu fikrlarga o'z munosabatini bildirish so'ralgan, bu shkalada «1» to'liq rozi emasligini (jadvalda qizil rangda) va «9» to'liq roziligini (jadvalda yashil rangda) bildirgan. Ushbu segmentda talabalarning 100% birinchi tili (T1) va ikkinchi til (T2) ularning o'ziga xosligining muhim jihatlari ekanligini ta'kidladilar va bir ovozdan 100% rozilik bildirishdi. Ular o'z uylarida L1 (qoraqalpoq) va L2 (rus) tillaridan teng foydalanadilar. Ko'rinib turibdiki, qoraqalpoq talabalari 5, 6, 8 va 9-bandlar bo'yicha urg'u va talaffuzni hal qiluvchi ahamiyatga ega deb bilishadi, bu ko'nikma ularning talaffuzini kuchaytiradi.

3-rasm. To'qqiz mezondan iborat fonetik komptensiya so'rvnomasi

4-rasm. To'qqiz mezondan iborat fonetik kompetensiya so'rovnomasi natijasi

Tadqiqot qoraqalpoq talabalari o'rtasida ikki tillilik, lingvistik identivlik va talaffuzni bilish o'rtasidagi munosabatlarni har tomonlama o'rganishni taklif etadi. Tushunish uchun muhim vosita sifatida kengroq muloqot kontekstiga asoslangan tadqiqot tilni bilish, psixologik omillar va madaniy o'ziga xoslik o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni yoritadi. Ko'pchilik qoraqalpoqlik talabalar rus tilini bolalikdan o'zlashtirishganliklarini aytishgan va shu yo'sinda ikki tilli poydevor ham yaratilgan. Bu qoraqalpoq talabalari o'rtasida ikki tillilikni o'rganish uchun asos bo'lib, bir nechta tilni biladiganlar madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyat qozonishlari haqidagi kengroq tushunchaga mos keladi.

Tadqiqotning ikki tillilikka bo'lgan e'tibori qoraqalpoq talabalarining ko'p qirrali lingvistik qobiliyatlarini ta'kidlab, ishtirokchilarning turli tillarni o'rganishga bo'lgan faolligi bilan mustahkamlanadi. Kattalarga ham, turmush o'rtoqlarga ham murojaat qilishda "sen" ikkinchi shaxs birlik olmoshining oilaviy qo'llanilishi ikki tillilik tushunchasini mustahkamlab, ikki tomonlama lingvistik o'ziga xosligini ta'minlaydi.

So'rovning ikkinchi qismida ishtirokchilar o'zlarining ko'p tillarni bilish darajasini o'zlari baholab, respondentlarning 90 foizida ingliz tilini bilish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu ikki tillilikning amaliy afzalliklarini ta'kidlab, bir nechta tillarda so'zlashuvchilar o'zaro munosabatlarda muvaffaqiyat qozonishlari haqidagi kengroq bayonotga mos keladi.

Uchinchi bosqich talaffuzga bo'lgan munosabatga qaratilgan bo'lib, unda 100% talabalar o'zlarining shaxsiyatini shakllantirishda birinchi (L1) va ikkinchi (L2) tillarning ahamiyatini tasdiqlaydilar. Urg'u va talaffuzning ahamiyati to'g'risidagi bir ovozdan kelishuv QTlarning til ko'nikmalarini yaxshilash uchun ongli ravishda harakatlarini aks ettiradi. Tadqiqot ularning taqlid qilishga moyilligini ta'kidlab, xorijiy tillarning talaffuzini o'zlashtirishning 90% ona tilida so'zlashuvchilarga taqlid qilish orqali ekanligini tan oladi va til rivojlanishida ikki tillilikning faol rolini ko'rsatadi. Fonetik kompetensiyaga potensial ta'sir etuvchi shaxs psixologiyasi va uning "nutqiy portreti"ni o'rganish – tilni o'zlashtirish, identivlik va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar haqidagi tushunchamizni boyitadi.

26

XULOSA

1. Tadqiqotda belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda, ikki tillilikning chet tilini o'zlashtirish va ikki tilli ta'limga ta'siri o'rganilgan. Chet tilini o'zlashtirish nazariyasi, xususan, bilingvizm tilni o'zlashtirish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni tushunish uchun asos bo'ldi. Ikki tilli ta'lim komponentlarining muhimligini anglagan holda, ikki tillilar tomonidan chet tilini o'zlashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar va strategiyalarni aniqlashga imkon yaratadi.

2. Lisoniy identivlik ijtimoiy va shaxsiy o'ziga xoslikning hal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Lisoniy nisbiylik nazariyasini tahlil qilish orqali til va o'zlikni shakllantirish o'rtasidagi murakkab munosabatni kuzatish mumkin. Ikki tillilikning lisoniy identivlikka ta'siri o'rganilib, tildan foydalanish orqali dinamik munosabatlarga e'tibor qaratish mumkinligi o'z yechimini topdi. Shuningdek, madaniy farqlar va ikkinchi tilni o'zlashtirishda madaniy identivlikning ahamiyati ta'kidlanadi.

3. Ikki tilli shaxslarning yuqori til ko'nikmalariga, jumladan, grammatik, metallingvistik ong va kommunikativ qobiliyatlarga egaligi aniqlandi. Kognitiv rivojlanish nuqtayi nazaridan ikki tillilikning afzalliklari aniq namoyon bo'ldi, bu jarayonning kognitiv qobiliyatlarga va madaniy ongga ijobiy ta'siri isbotlandi.

4. Chet tilida fonetik kompetensiyani egallashga ijtimoiy-psixolingvistik omillarning ta'siri o'rganildi. Ikki tillilikning chet tillardagi talaffuzga ijobiy ta'siri e'tirof etilib, lingvistik identivlikni aniqlashdagi ahamiyati ta'kidlandi.

5. Ikki tillilik faqat ikkinchi tilni o'zlashtirish emas, balki tildan foydalanuvchilarning ma'no yaratish uchun individual resurslarini ifodalovchi til amaliyotlari repertuari ekanligi tahlilga tortildi. Ishtirokchilarning o'z ona tilini, rus va qoraqalpoq tillarini bilish darajalari ularning ingliz tilini talaffuz qilishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

6. Nutq faoliyatining xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga urinishlar fanda yangi tadqiqot obyekti – lisoniy shaxsning paydo bo'lishiga olib keldi. Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan, inson o'zini anglash, undagi nazariy va obyektiv faoliyati, uning nutqida namoyon bo'ladigan qadriyatlar iyerarxiyasini aniqlash orqali dunyoni tan oladi va asosiy e'tibor ona tilida so'zlashuvchiga qaratiladi.

7. Olamning konseptual manzarasi zamirida hosil bo'ladigan bilim egasi bo'lgan shaxs – kommunikativ yetuklik darajasiga erishganidan so'ng uning lisoniy qobiliyati yaratuvchanlik uzvi bilan boyiydi. Demak, haqiqiy lisoniy qobiliyat, yadroviy sintaktik strukturalarning tuzilish qoidalarini egallash orqali shakllanmasdan, balki mental va kommunikativ maqsadlarni umumlashtiruvchi nutqiy tafakkur faoliyat malaka-ko'nikmalari mavjudligida namoyon bo'ladi.

8. Til ijtimoiy, madaniy va kognitiv elementlar bilan o'zaro bog'liq hodisa sanaladi. Tilning ijtimoiy kontekstdagi ma'nosini tushunish til funksiyalarini har tomonlama idrok etish uchun zarurdir. Bundan tashqari, tadqiqotda turli tillarda "identivlik", "subyektivlik" va "individuallik" kabi aniq tushunchalarni aks ettira oladigan ikkinchi shaxs birlik olmoshlarini qo'llash kabi o'ziga xos lingvistik xususiyatlarni ko'rib chiqish muhimligi ta'kidlandi.

9. Ikki tillilikning til rivojlanishining boshqa jihatlariga, masalan, so'z boyligini o'zlashtirish, sintaktik kompetensiya va nutqiy ko'nikmalarga ta'siri qo'shimcha tadqiqotlar mavzusi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ikki tillilikning qoraqalpoqlik talabalarning ongi va ijtimoiy ko'nikmalariga ta'sirini o'rganish – ikki tillilikning kengroq kognitiv va ijtimoiy-emotsional afzalliklarini yoritib beradi

10. Mazkur tadqiqot ikki tillilik va uning til ta'limiga ta'siri haqida muhim nazariy manba vazifasini o'taydi. Nazariy nuqtayi nazarlarni, empirik faktlarni va ijtimoiy-madaniy kontekstni o'rganish orqali ikki tillilikning ko'p qirrali tabiati va uning lingvistik identivligi, kognitiv qobiliyati va fonetik kompetensiyani egallashga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Ushbu faktlar istiqboldagi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ikki tilli shaxslarda samarali til o'zlashtirish va madaniyatlararo kompetensiyani rag'batlantiradigan ta'lim amaliyotlarini yaratish imkonini beradi.

11. Dissertatsiya natijalari iikki tillilik va til ta'limi jarayonidagi kompleks muammolarni yanada chuqurroq o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida, istiqboldagi izlanishlar bilingval shaxslarning til siyosati kontekstida individual o'ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilishi lozim.

12. Ta'lim jarayonida ikki tillilikning muhim tarkibiy qismi sifatida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin. Chet tilini o'zlashtirish jarayonida tilni o'rganuvchi shaxslar o'z nutqiy portretlarini shakllantirishda ona tili va boshqa tillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorligini anglash tilni o'rganish jarayonida shaxsning lisoniy identivligini mustahkamlashga yordam beradi.

13. Ko'p tilli identivlik bu faqat tilga xos xususiyatlar to'plami emas. Bir lisoniy shaxs bir nechta madaniyat yoki til bilan aniqlanib, har xil lisoniy identivlikka ega bo'lishi mumkin. Til shaxsiyati – madaniy shaxsiyat, ijtimoiy rol va diskursiv omilni o'z ichiga olgan doimiy o'zgaruvchan jarayondir. Ularning individual tajribasining murakkab yo'nalishlari, hissiy va kognitiv jarayonlar, o'z-o'zini anglash, o'rganilayotgan xorijiy til ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarini tushunish, shuningdek, bir nechta tillarni o'rganishdan kelib chiqadigan tushunchalar va munosabatlarning barchasi ko'p tilli shaxslarning lisoniy identivligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda talaffuz ko'nikmasi darajasi shaxsiyat bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'rganilgan barcha til xususiyatlari orasida o'z-o'zini ifoda etish uchun eng muhimi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

ONE TIME SCIENTIFIC COUNCIL UNDER THE SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY OF WORLD LANGUAGES

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

KHUSHMURODOVA SHAKHNOZA SHAYMONKULOVNA

LINGUISTIC AND COGNITIVE FEATURES OF THE SECONDARY LANGUAGE IDENTITY FORMATION IN BILINGUAL STUDENTS

10.00.11 – Theory of Language. Applied and Computer Linguistics

DISSERTATION ABSTRACT
OF THE DOCTOR OF PHILOLOGICAL SCIENCES (DSc)

TASHKENT - 2024

The dissertation topic of the Doctor of Science (DSc) is registered under the number B2023.3. DSc /Fil614 in the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation was completed at Samarkand State University, named after Sharof Rashidov.

Abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) posted on the website of the Scientific Council (www.uzswlu.uz) and the educational information portal "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Ergasheva Guli Ismoil qizi** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Khayrullayev Khurshidjon Zayniyevich** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Arustamyan Yana Yuriyevna Doctor of Philological Sciences, associate professor
	Vositov Volijon Abduvahobovich Doctor of Philological Sciences, associate professor
Leading organization:	**Jizzakh State Pedagogical University**

The thesis defense will take place on «__» _____2024 at __ at the meeting of the Scientific Council DSc. 03/30.12.2019.Fil.27.01 on awarding One-time scientific degrees at Uzbekistan State University of World Languages. (Address:100173, Tashkent city, Kichik halqa yo'li str G-9A-21, tel.: (99871) 230-12-91; fax: (99871) 230-12-92, e-mail: uzdjtu_d@edu.uz).

The dissertation is available at the Information Resource Center at Uzbekistan State University of World Languages. (registered under number ____). Address: 100138, Tashkent, Small Ring Road str., 21. Tel.: (99871) 230-12-91, fax: (99871) 230-12-92).

The abstract of the dissertation was sent out on «_____» _____ 2024.

(Protocol of the Registry No____ dated on «_____» _____ 2024).

I.M. Tukhtasinov
Chairperman of the One-time Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Pedagogy, Professor

Kh.B.Samigova
Scientific Secretary of the One-time Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

J.A.Yakubov
Chairperman of the One-time Scientific Seminar at the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

INTRODUCTION (abstract of the DSc dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In world linguistics, the dynamics of the development of bilingualism and multilingualism maintain a steady upward trend. Being a pole of the intersection of at least two linguistic worlds, bilingualism activates the formation of a person of a new information culture. Knowledge of foreign languages facilitates the perception of the unique specificity of another culture and provides the opportunity to communicate in the social and information space of the modern community. Understanding the phenomenon of bilingualism in the context of the development of cultural values is the most important task of the contemporary stage of civilization.

Today, modern linguistics highly addresses bilingualism 1) as a communicative and a widespread phenomenon; in the science of language, various characteristics of natural bilingualism have been considered, while artificial bilingualism is analyzed only in works on linguodidactics and speech psychology, 2) artificial bilingualism is a fact of actual linguistic existence for the vast majority of the population world, since a foreign language is taught in various types of educational institutions in different countries, however, the linguistic status and characteristics of artificial bilingualism have not yet been the subject of special scientific consideration, 3) modeling artificial bilingualism acts as a necessary part of the general theory of communication and the theory of language contacts, 4) linguistic study of artificial bilingualism makes it possible to open up new perspectives in the development of areas of knowledge related to linguistics - psychology, cultural studies, methods of teaching foreign languages.

This dissertation research is an in-depth, multidimensional study of Uzbekistan's linguistic and bilingual situation. The fact that «Further improvement of the youth support system in our country, development of knowledgeable and enlightened youth, development of creative and intellectual abilities of the growing young generation, popularisation of teaching foreign languages, as well as subjects engaged in such activities to create a favorable environment for support and development, to improve the processes of teaching young people foreign languages, to expand the conditions for perfect mastery of foreign languages in high demand.»[1] sets the task of raising the level of research to be equal to the world standards. The topic of the dissertation is determined by the lack of study of the problem of bilingualism in general, on the one hand, general and particular patterns of language contacts and, on the other hand, determining the quality of English language proficiency by bilingual Karkalpak students, theoretical and practical understanding of linguistic, extralinguistic and linguoculturological factors that affect the degree of development of bilingualism in the field of education, contributing to the improvement of the phonetic competence of Karakalpak students, the formation and development of students' secondary language identity.

The results of this dissertation will serve to some extent in implementing the tasks outlined in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan

---

[1] The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the Oliy Majlis on December 22, 2017. – People's Word, December 23, 2017. – #258 (6952).

No. PQ-2909 dated April 20, 2017, "On measures to further develop the higher education system," No. PQ-3775 dated June 5, 2018, "On additional measures to improve the quality of education in higher educational institutions and ensure their active participation in the comprehensive reforms being carried out in the country," No. PQ-5117 dated May 19, 2021, "On measures to bring the activities of promoting foreign language learning to a qualitatively new level," the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 dated October 8, 2019, "On approving the concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030," the Decree No. PF-60 dated January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026," the Address of President Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis dated January 24, 2020, the Law of the Republic of Uzbekistan No. 637 dated September 23, 2020, "On Education," the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 312 dated May 19, 2021, "On measures for the effective organization of promoting foreign language learning," and other regulatory legal documents.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic: I. The research was carried out under the priority directions of science and developing technology of the Republic, "The Formation of the Innovative System of Ideas in Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual and Educational Development of the Democratic State and their Ways of Implementation in the Information Society."

A review of international research on the topic of dissertation[2]. The 1968 "Bilingual Education Act" was the first federal law in the United States to address the needs of English-speaking and limited-English-proficient students. It promoted bilingualism and supported programs designed to teach English as a second language by allocating funds for programs serving children with limited English proficiency. Bilingual programs have gained global recognition in the past few decades, with significant development starting in the 1990s. Schools in states like California, New York, and Texas have offered bilingual immersion programs, teaching students both English and additional languages (such as Spanish or Mandarin).

The modern era of bilingual education in the United States may be dated back to 1963, to Coral Way Elementary School in Dade County, (Miami) Florida (Mackey & Beebee, 1977). This original bilingual program served an equal ratio of English to Spanish native speakers. The goal was to promote bilingualism among both groups of students.

Bilingual education has existed in various forms for various linguistic groups since the mid-XX century. (Fishman & Hofman, 1966; Kloss, 1977). While early efforts in bilingual education and present-day bilingual programs in Canada promote the development of bilingualism as their goal, most bilingual programs in the U.S. today promote bilingual education as a means to achieve literacy in English only. CLIL (Content and Language Integrated Learning) was introduced in various European countries during the 1990s and 2000s. CLIL involves teaching natural and

---

[2] www.pushkin.institute, www.vub.ac.be, www.upf.edu/en/home, www.ralk.info, www.msu.ru, www.ugr.es/en, www.mq.edu.au/, www.uni-konstanz.de/en/, www.uzswlu.uz/, www.universityofcalifornia.edu.

social sciences in a foreign language. Countries such as Spain, Italy, and Finland have widely implemented the CLIL system in their educational frameworks.

Vrije Universiteit Brussel, Belgium, the Russian Linguistic Association of Cognitologists, the American Association for Applied Linguistics, and the Russian Foundation for Basic and Applied Linguistics look historically at research in the field of BE both in the development of evaluation research agendas and basic research on bilingualism to examine some of the forces which have influenced that research and have helped to shape the present state of BE.

A variety of models of bilingual education and a foundation of terminology have been developed in countries such as Austria, Germany, the United Kingdom, the United States, Canada, the Czech Republic, Scandinavia, the Russian Federation, Ukraine, Azerbaijan, Latvia, Lithuania, Estonia, as well as Uzbekistan.

Problem development status. Second-language acquisition is a scientific discipline regarded by some, but not everybody, as a sub-discipline of applied linguistics. It has been researched by various other disciplines, such as psychology and education. For instance, researchers such as Flege J. E., Yeni-Komshian G., Liu H., Asher J.J., Garcia R., etc., considered the age format one of the essential points in second-language acquisition[3].

Research on pressing issues of bilingualism, its psychological and social aspects, advantages, and methodological features has been carried out by Russian scholars such as E.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov, L.S. Vygotsky, A.N. Leontiev[4], and others. In Uzbek linguistics, studies on Uzbek-Tajik bilingualism, its social aspects, the differences and similarities between the languages, and the psychological and social factors influencing them have been explored in the works of M.T. Zokirov, K. Yusupov, X. Gulyamov, K. Rahmonberdiyev, N.G. Gulyamova, M. Shamsiyeva, and others, offering practical insights into language contact, particularly bilingualism.

Russian scientists, such as E.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov, L.S. Vigotski, and A.N. Liontiyev, research studies on current issues of bilingualism, its psychological and social views, advantages, and methodological features.

There are practical ideas about language relations, particularly bilingualism in Uzbek linguistics, Uzbek and Tajik bilingualism, its social view, mutual differences

---

[3] Flege, J. E. Age of learning and second-language speech. In New perspectives on the critical periodhypothesis for second language acquisition (D. Birdsong, editor), 1988. – pp.101-131; Yeni-Komshian, G. & Liu, H. Age constraints on second language acquisition, Journal of Memory & Language, 1999. – pp. 78-104; Asher, J. J. & GarcmH. R. The optimal age to learn a second language, The Modern Language Journal, 1969. – pp. 334-341; Bialystok, E. The structure of age: in search of barriers to second language acquisition, Second Language Research, 13, 1997. – pp. 116-137; Bongaerts, T., Planken B. & Schils, E. Can late learners attain a native accent in a foreign language? A test of the critical period hypothesis. In The age factor in second language acquisition (D. Singleton & Z. Lengyel, editors), 1995. – pp. 30-50. Clevedon, U.K.: Multilingual Matters; Bongaerts, T., van Summeren, C., Planken, B. & Schils, E. Age and ultimate attainment in thepronunciation of a foreign language, Studies in Second Language Acquisition, 19, 1997. – pp. 447-465.

[4] Верещагин Е.М. Психологическая и методологическая характеристика двуязычия (билингвизма). – Москва: МГУ, 1969. – С. 160.; Верещагин Е.М., Костомаров В. Г. Теория лингвострановедения: Лингвокультурология в аспекте билингвального образования (Theory of Linguoculturology: Linguocultural Studies in the Aspect of Bilingual Education). – Москва: Наука, 1990. – С. 70-89; Выготский Л.С. Мышление и речь (Thought and Language). – Москва: Педагогика, 1986. – С. 109, Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. Москва: Педагогика. 1978. – С. 70-89.

and similarities of languages, and factors affecting them at the psychological and social level are discussed by M.T. Zokirov, K. Yusupov, H. Gulyamov, K. Rahmonberdiyev, N.G. Gulyamova, M. Shamsiyeva[5], and others.

Most evaluation research has attempted to determine the best way to "do" bilingual education. These studies have examined which model works best or which curriculum is more successful. Other research with more basic orientations has looked at specific aspects of bilingual education related to various theories such as second language acquisition, native language shift bilingualism, and cognition. The studies devoted to re-examining phonetic variability in native and non-native speech were done by Markham D., Neufeld G.G., Olson L.L., Samuels S.J., Oyama S., Piper T., Cansin D., Purcell E.T., Suter R.W., Riney T.J., Flege J.E[6]. Psycholinguistic perspectives of bilingual students were reflected in the works of Grosjean, F.[7]:

Cognitive aspects of bilingualism were researched by Hieke A. E., Hurford J. R., Jilka M., Lamendella J. T., Lenneberg E. H., Meador D., Flege J. E., MacKay I.R.A., Meador D., Flege J.E., MacKay I.R., A. Moyer, A. Neville H.J., Mills D.L., Lawson, D.S., etc[8].

